

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN SO'NG FONEMATIK ESHITUVNI VA VERBAL MULOQOTINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Inklyuziv ta'lim kafedra o'qituvchisi

Abdulxodiyeva Muhayyo Shokirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Surdopedagogika yo'nalishi 3 - bosqich talabasi

Annotatsiya. *Koxlear implantatsiya qilingan bolalarda fonematik eshituvni rivojlantirish masalasi muhim pedagogik va logopedik vazifa sifatida yoritilgan. Implantatsiyadan keyingi davrda fonematik eshituv yetarli shakllanmasa, nutq, o'qish va yozuv malakalarida qiyinchiliklar yuzaga kelishi asoslab berilgan. Fonematik eshituvni rivojlantirish jarayonida tovushlarni farqlashga qaratilgan maxsus mashqlar va bosqichma-bosqich yondashuvning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Ilmiy manbalarda ko'rish va eshitish analizatorlarining birgalikda qo'llanilishi samarali natija berishi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar. *Koxlear implantatsiya, akustik, artikulyatsion xususiyat, talaffuz, tovush, eshitish, logopedik mashq.*

Annotation. *The issue of developing phonemic hearing in children with cochlear implants is highlighted as an important pedagogical and speech therapy task. It is substantiated that if phonemic hearing is not sufficiently formed in the post-implantation period, difficulties arise in speech, reading, and writing skills. The importance of special exercises aimed at distinguishing sounds and a step-by-step approach in the process of developing phonemic hearing is shown. Scientific sources emphasize that the combined use of visual and auditory analyzers gives effective results.*

Keywords. *Cochlear implantation, acoustic, articulatory properties, pronunciation, sound, hearing, speech therapy exercises.*

Аннотация. *В статье подчеркивается важность развития фонематического слуха у детей с кохлеарными имплантами как важной педагогической и логопедической задачи. Обосновывается, что если фонематический слух недостаточно сформирован в послеимплантационный период, возникают трудности в развитии речи, чтения и письма. Показана важность специальных упражнений, направленных на различение звуков, и поэтапного подхода к процессу развития фонематического слуха. Научные источники подчеркивают, что комбинированное использование визуальных и слуховых анализаторов дает эффективные результаты.*

Ключевые слова. *Кохлеарная имплантация, акустические и артикуляционные свойства, произношение, звук, слух, упражнения по логопедической терапии.*

Koxlear implantatsiya og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega bolalar uchun eshitish imkoniyatini yaratib beruvchi muhim tibbiy-pedagogik vosita hisoblanadi. Biroq implantatsiya jarayonining o'zi nutq va eshituv rivojini to'liq ta'minlab bermaydi. Implantatsiyadan keyingi davrda eng muhim vazifalardan biri bu — bolaning fonematik eshituvini shakllantirish va rivojlantirishdir. Chunki fonematik eshituv nutq tovushlarini farqlash, to'g'ri talaffuz qilish va so'z ma'nosini anglashning asosi hisoblanadi. Fonematik eshituv — bu nutq tovushlarini eshitish orqali farqlash, taqqoslash va anglash qobiliyati. Koxlear implantatsiya qilingan bolalarda dastlab tovushlar notabiiy, mexanik tarzda qabul qilinadi. Shu sababli bola bir-biriga yaqin tovushlarni (masalan, b–p, s–sh, k–g) ajratishda qiyinchilikka duch keladi. Bu holat nutq rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bagrova T.A. fonematik eshituvni rivojlantirish jarayonida tovushlarning akustik va artikulyatsion xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, jumladan koxlear implantatsiya qilingan bolalar uchun tovushlarni farqlash mashqlari maxsus tizim asosida olib borilishi lozimligi ko'rsatilgan. Po'latov K. va Rahmonova D.ning ishlarida fonematik eshituvni rivojlantirishda ko'rish va eshitish analizatorlarining birgalikda ishlatilishi yuqori samaradorlik berishi ko'rsatilgan. Olimlar bu yondashuv koxlear implantatsiya qilingan bolalarda tovushlarni idrok etishni yengillashtirishini ta'kidlaydilar. Levina R.E. fonematik eshituv yetarli rivojlanmagan hollarda nutqning fonetik-fonematik buzilishlari yuzaga kelishini qayd etgan. Uning fikricha, tovushlarni farqlashga qaratilgan maxsus mashqlar nutq kamchiliklarini oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Koxlear implantatsiya qilingan bolalarda implant o'rnatilgan bo'lishiga qaramay, fonematik eshituv yetarli darajada shakllanmasligi kuzatiladi. Natijada bola nutq tovushlarini aniq farqlay olmaydi, so'zlarni noto'g'ri tushunadi, talaffuzida xatolar ko'p uchraydi. Bu holat bolaning og'zaki nutqi, yozma nutqi va o'qish malakalarining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ta'lim jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keltiradi.

Muammoning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo'ladi. Avvalo, koxlear implant orqali qabul qilinadigan tovushlar tabiiy eshituvdan farq qiladi va bola tovushlarni dastlab sun'iy tarzda idrok etadi. Ikkinchidan, implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya jarayoni yetarli darajada tizimli olib borilmasligi fonematik eshituv rivojiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, logopedik mashg'ulotlarning kamligi yoki noto'g'ri tashkil etilishi, ota-onalarning yetarli pedagogik bilimga ega emasligi ham muammoni kuchaytiradi. Ba'zi hollarda bolaning eshituv tajribasining kech shakllanganligi ham fonematik eshituv rivojini sekinlashtiradi.

Muammoni bartaraf etish uchun implantatsiyadan keyingi davrda fonematik eshituvni rivojlantirish ishlari bosqichma-bosqich va uzluksiz olib borilishi zarur. Dastlab bolaning eshituv diqqatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tashkil etilishi, soʻngra nutq tovushlarini farqlashga oʻtilishi lozim. Logopedik mashgʻulotlarda unli tovushlardan boshlab, asta-sekin undosh tovushlarga oʻtish, ayniqsa akustik jihatdan oʻxshash tovushlar ustida koʻproq ishlash tavsiya etiladi. Implantatsiyadan soʻng fonematik eshituvni rivojlantirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Dastlabki bosqichda bolaning atrof-muhit tovushlarini eshitib farqlash koʻnikmalari shakllantiriladi. Masalan, eshik yopilishi, qarsak, qoʻngʻiroq ovozi kabi tovushlarni tanish va ajratish mashqlari bajariladi. Bu bosqich bolaning eshituv diqqatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Keyingi bosqichda nutq tovushlarini ajratish ishlari olib boriladi. Avval unli tovushlar bilan ishlash tavsiya etiladi, chunki unli tovushlar choʻzilib aytiladi va eshitilishi nisbatan oson boʻladi. Shundan soʻng undosh tovushlar, ayniqsa akustik jihatdan oʻxshash tovushlar ustida mashqlar tashkil etiladi. Mashgʻulotlar davomida koʻrish, eshitish va harakat analizatorlarining birgalikda ishlatilishi ijobiy natija beradi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, qanchalik koxlear implantatsiya erta qilinsa, shunchalik natijalarni yaxshi boʻlishini kuzatishimiz mumkin (Korolyova I.V). Koʻpchilik olimlarning fikriga koʻra, bolani 2-3 yoshga toʻlguniga qadar, eshitishining pasayganligini va unga eshitish apparati yordam bermayotganligini payqagan kundan boshlab, tezlikda operatsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiqligini koʻrsatib oʻtishmoqda. Bola qanchalik erta operatsiya qilinsa, uning nutqini rivojlanishidagi muammolar ham shunchalik erta bartaraf qilinadi. Koxlear implantli bolalarda fonematik idrok shakllangandan keyin asosiy ish ogʻzaki nutqni rivojlantirishga qaratiladi. Chunki bola tovushlarni eshitib farqlay boshlagan boʻlsa ham, ularni mustaqil ravishda nutqda qoʻllash hali oson kechmaydi. Shu sababli bu bosqichda har bir mashgʻulot eshitish va gapirishni birgalikda rivojlantirish asosida olib boriladi. Avvalo, bola oʻrganilgan tovushlarni boʻgʻinlarda va soʻzlarda toʻgʻri aytishga oʻrgatiladi. Masalan, defektolog tovushni aniq aytadi, bola esa eshitib, takrorlaydi. Keyin shu tovush ishtirok etgan soʻzlar bilan ishlanadi. Bu jarayonda faqat aytish emas, balki eshitib tushunishga ham katta eʼtibor beriladi. Bola tovushni qayerda eshitayotganini — soʻz boshidami, oʻrtasidami yoki oxiridami — asta-sekin anglay boshlaydi. Keyin bolaning soʻz boyligini kengaytirish ustida ish olib boriladi. Bunda koʻproq kundalik hayotda ishlatiladigan soʻzlar tanlanadi. Masalan, oila aʼzolari, kiyim-kechak, ovqatlar, oʻyinchoqlar nomlari oʻrgatiladi. Defektolog rasm yoki real buyumdan foydalanib savollar beradi, bola esa imkon qadar ogʻzaki javob qaytarishga harakat qiladi. Baʼzi hollarda bola qisqa javob beradi, lekin bu ham ogʻzaki nutq rivoji uchun muhim hisoblanadi. Shundan keyin grammatik jihatdan toʻgʻri gap tuzishga oʻrgatish boshlanadi. Avval oddiy gaplar tuziladi, masalan: “Bu olma”, “Bola keldi”. Keyin bu gaplar asta-sekin kengaytiriladi. Defektolog bolaning gapini toʻgʻrilab,

to'liq shaklda takrorlab beradi. Bu usul bolaning xatolarini keskin tanqid qilmasdan, to'g'ri nutqni o'rganishiga yordam beradi. Og'zaki nutqni rivojlantirishda dialogik nutqqa ham alohida e'tibor beriladi. Bola savol berishga va savolga javob qaytarishga o'rgatiladi. Bunda rolli o'yinlar juda samarali bo'ladi. Masalan, "do'kon", "mehmon keldi" kabi o'yinlar orqali.

Koxlear implantli bolalarda tovushlarni hosil qilish jarayoni oddiy bolalardagiga o'xshash bo'lsa-da, ularni shakllantirishda aniq ketma-ketlik va maxsus yondashuv talab etiladi. Chunki bola tovushni eshitishni yangi o'rganayotgan bo'ladi va har bir tovush uning eshituv tajribasiga asta-sekin kirib boradi. Avvalo, tovush hosil bo'lishi uchun bola nafasni to'g'ri olish va chiqarishga o'rgatiladi. Nafas mashqlari orqali bola og'izdan havo chiqarishni, ovoz chiqarib puflashni, ovozni ushlab turishni mashq qiladi. Shundan keyingina tovush chiqarishga o'tiladi. Dastlab unli tovushlar bilan ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki unli tovushlar oson eshitiladi va talaffuzi ham sodda.

Tovushlarni shakllantirishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish tavsiya etiladi. Eng avvalo, ochiq va cho'zib aytiladigan unli tovushlar o'rgatiladi. Masalan, "a", "o", "u", "i". Bu tovushlar bolaga oson eshitiladi va talaffuz qilinadi. Keyinchalik "e", "o'" kabi unli tovushlarga o'tiladi. Undosh tovushlar esa asta-sekin, yengildan murakkabga qarab kiritiladi. Dastlab lab tovushlari — "m", "b", "p" tovushlari o'rgatiladi. Chunki bu tovushlarni bola lab harakatini ko'rib ham oson tushunadi. Shundan so'ng til oldi tovushlari — "t", "d", "n", "s" tovushlari kiritiladi. Keyin esa til o'rta va til orqa tovushlari — "k", "g", "x", "q" kabi tovushlar o'rgatiladi. Eng oxirida esa talaffuzi murakkab bo'lgan "r", "sh", "ch", "j" tovushlari ustida ish olib boriladi. Har bir tovush avval alohida holda aytiladi, keyin bo'g'inlarda mustahkamlanadi. Masalan, "ma", "mo", "mu". Keyinchalik esa shu tovush ishtirok etgan so'zlar bilan ishlanadi. Muhimi, tovushni faqat aytish emas, balki eshitib tanish va ajratish ham doimiy nazoratda bo'lishi kerak. Lug'at zaxirasini rivojlantirish masalasiga keladigan bo'lsak, bu ish tovush va so'zlar bilan bir vaqtda olib boriladi. Avval bolaning faol lug'atiga kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan so'zlar kiritiladi. Masalan, "ona", "ota", "suv", "non", "uy", "bola" kabi so'zlar tanlanadi. Bu so'zlar real buyumlar yoki rasmlar orqali tushuntiriladi. So'z o'rgatishda muhim ko'rsatmalardan biri bu- har bir so'zni harakat yoki holat bilan bog'lashdir. Masalan, "ichdi", "keldi", "o'ynadi" kabi so'zlar harakat orqali ko'rsatilsa, bola ularni tezroq eslab qoladi. Shu bilan birga, sifat bildiruvchi so'zlar ham asta-sekin kiritiladi: "katta", "kichik", "issiq", "sovuq". Lug'at boyligini kengaytirishda mavzuli yondashuv juda samaralidir. Bir mavzu doirasida so'zlar ketma-ket beriladi va doimiy takrorlanadi. Masalan, "oziq-ovqat" mavzusida "olma", "non", "suv", "shirin" so'zlari birgalikda o'rganiladi. Har bir so'z gap ichida ishlatiladi, chunki bola so'zni alohida emas, balki nutq tarkibida o'zlashtiradi. Yana bir muhim metodika — takroriy, lekin zeriktirmaydigan muloqotni tashkil etishdir. Bir xil so'zlar turli vaziyatlarda qayta-qayta ishlatiladi. Masalan, "olma" so'zi ovqat

paytida, rasmda, o'yinda va suhbatda ham qo'llanadi. Shu tariqa so'z bolaning faol lug'atiga mustahkam joylashadi. Muloqot jarayonida tayyor nutqiy modellardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, "Menga ... ber", "Men ... xohlayman", "Bu ... ekan". Bola ushbu modellarni eshitib, asta-sekin o'zi mustaqil qo'llay boshlaydi.

Fonematik eshituvni rivojlantirishda logopedik mashqlar muhim o'rin tutadi. So'zlarni eshitib tanlash, bir xil va farqli tovushli so'zlarni ajratish, bo'g'inlarni aniqlash kabi mashqlar bolaning nutqiy idrokini faollashtiradi. Shuningdek, rasmlar, predmetlar va o'yinlar orqali o'tkazilgan mashg'ulotlar bolada qiziqishni oshiradi va o'zlashtirishni yengillashtiradi. Bu jarayonda ota-onalarning ishtiroki ham juda muhim. Uy sharoitida bolaning eshituv tajribasini boyitish, kundalik suhbatlarda tovushlarga e'tibor qaratish, sekin va aniq gapirish fonematik eshituv rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Defektolog va ota-ona hamkorligi fonematik eshituvni shakllantirish samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Po'latov K., Rahmonova D. Surdopedagogika asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Багрова Т.А. Формирование фонематического слуха у детей с нарушением слуха. – Москва, 2015.
3. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. – Москва, 2014.
4. Karimova N.A. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Rahmonova D.Sh. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq va eshituvni rivojlantirish. – Toshkent, 2019.
6. Ismoilova G.K. Maxsus ta'limda logopedik ish asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
7. Nurmatova M.Sh. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2019.
8. <https://share.google/9LgB4QGv1d09MsZxk>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/nutqida-nuqsoni-bo-lgan-bolalarning-fonematik-idrokini-rivojlantirish-bo-yicha-korreksion-pedagogik-ish-mazmuni>
10. Fayziyeva, D. Nazarova, F. Qodirova. "Surdopedagogika".
11. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB -INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>
12. Manba: Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti <https://share.google/YI1uBlnwVfagYknNP>